

«13» dekabr 2022 yil

Namangan shahar

Namangan viloyat IIB JXX YHXB maxsus ekspluatatsiya montaj bo'limi rahbari F.K.Abdullayev bundan buyon bir tomondan «Xaridor» deb yuritiladi, nizom asosida xarakat qiluvchi, ikkinchi tomondan MChJ «Ultramax Road Build» raxbari Mirazizov M.M. nizom asosida ish yurituvchi bundan buyon «Sotuvchi» deb yuritiladi va quyidagilar haqida ushbu shartnoma tuzildi.

I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. «Sotuvchi» o'ziga Tegishli bo'lgan mol-mulkni sotish, «Xaridor» esa qabul qilib olingan dizel generatori uchun to'lovlarni belgilangan tartibda amalga oshirish majburiyatini oladilar.

II. SHARTNOMA NARXI

2.1.

t/r №	Tovarning nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Boshlang'ich narxi	Taklif etilgan narx	Su'mmasi QQS bilan
1	Машина для дорожной разметки «Шмель 11АН» (Газель Next)	dona	1	1 272 000 000	1 200 000 000	1 200 000 000
	Jami:					1 200 000 000

Tovarlarning shartnomaviy umumiy bahosi 1 200 000 000 (Bir milliard ikki yuz million) so'm, QQS bilan.

III. HISOB-KITOB QILISH TARTIBI.

3.1. «Xaridor» ko'rsatilgan xizmatning 15% (foiz) miqdorida pul mablag'ini oldindan o'tkazish yo'li bilan to'lovni amalga oshiradi. Qolgan 85% (foiz) qismini «Sotuvchi» tomonidan ishlar to'liq bajarilib, hisob – fakturalarni taqdim qilingandan so'ng amalga oshiriladi.

3.2. Tovarlar «Sotuvchi» ning transportida yetkazib berilganda transport xarajati o'zaro kelishilgan xolda qo'shimcha belgilanadi.

IV. TOVAR YETKAZIB BERISH MUDDATI.

4.1. «Sotuvchi» mazkur shartnoma qonuniy kuchga kirgandan (15% miqdorda pul mablag'ini oldinda o'tkazilgandan) so'ng tovarni 15 kun muddat ichida «Xaridor» ga bajarilgan ishlarni ko'rsatishi shart.

V. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

5.1. «Sotuvchi» ning huquqi va majburiyatlari:

- Shartnomada ko'rsatilgan talablarga rioya qilgan xolda o'z vaqtida «Xaridor»ga yetkazib berish;
- Shartnomaning shartlari «Xaridor» tomonidan buzilganda ko'rsatilayotgan tovarni to'xtatib qo'yish huquqiga ega;
- Tegishli darajada tovar yetkazib berilgandan so'ng, sifatli bo'lmagan tovarni ushbu shartnomaning 2-bandi talablarida ko'rsatib o'tilgan shartnomaning umumiy so'mmasidan sifatli bo'lmagan tovar bahosini qaytarib berish. Sifatsiz tovar xaqida sotuvchiga xabarnoma olgandan so'ng tomonlar o'rtasida sifatsiz tovarlarni qaytarib berish bo'yicha o'zaro dalolatnoma tuziladi.
- «Sotuvchi» yetkazib bergan maxsulotlarini hisob-varaqlarda to'liq va aniq nomini, maxsulot navini, kategoriyasini va boshqa ko'rsatkichlarini ko'rsatishi shart. Shuningdek, hisob-varaqlarni belgilangan tartibda raqamlab, to'liq rekvizitlarni rasmiylashtirish lozim.

5.2. «Xaridor» ning huquq va majburiyatlari:

- «Xaridor» Shartnomada belgilangan talablarga rioya qilgan xolda to'lovlarni amalga oshirish, tovarni dalolatnoma tuzib ushbu shartnomada va qonun xujjatlarida belgilangan butlash tartibiga, soniga, sifatiga qarab o'z vaqtida maxsulotni qabul qilib olishi lozim.
- Tegishli darajada sifatli bo'lmagan mol-mulk kelib tushganligi aniqlangandan so'ng, ushbu to'g'risida tegishli dalolatnoma tuzilib bu xaqida 3 kun ichida «Sotuvchini» ni ogoxlantirish kerak.
- To'liq rasmiylashtirilmagan xamda maxsulotning sifati, navi va kategoriyalari ko'rsatilmagan hisob-varaqlar bo'yicha to'lovlar amalga oshirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

VI. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni ijro etilmasligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida shuningdek ushbu shartnomada nazarda to'tilgan talablar asosida javobgardirlar.

6.2. «Sotuvchi» tomonidan «Xaridor»ga tovar va maxsulotlarni belgilangan muddatlarda yetkazib bermaganligi uchun kechiktirilgan xar bir kun uchun yetkazib berilmagan maxsulot kiymatining 0,5%(foiz)

miqdorida «xaridor» ga penya tulaydi, lekin penya miqdori kechiktirilgan maxsulot qiymatining 50% (foiz) dan oshmasligi kerak.

6.3. Shartnoma talablarida ko'rsatilgan belgilangan sifatlardagi xamda butlashdagi mol-mulk yetkazib berilmagan taqdirda, aybdor taraf ushbu maxsulot qiymatining 20% (foiz) miqdorida jarima to'lashiga sabab bo'ladi.

6.4. «Xaridor» tomonidan olingan tovar yoki maxsulot uchun to'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda kechiktirilgan xar bir kun uchun kechiktirilgan so'mmaning 0,5% (foiz) miqdorida «Sotuvchi»ga penya tulaydi, bunda penyaning umumiy miqdori kechiktirilgan so'mmaning 50% (foiz) dan ortiq bo'lmasligi lozim.

6.5. Nazorat organlari tomonidan o'tkazilgan tekshirish davomida yetkazib berilgan dizel generatori bir barobariga ulgurji narxidan yuqori deb topilgan taqdirda o'rtadagi farq yetkazib beruvchi tomonidan qoplanadi.

VII. FORS-MAJOR XOLATLARI

7.1. Xech bir taraf ikkinchi taraf oldida o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra va yengib bo'lmas kuch mavjud bo'lgan taqdirda ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlari bo'yicha javobgar emas. Favqulotda tushadigan xolatlar: suv toshqini, yong'in, yer qimirlashi va boshqa tabiiy ofatlar, Shuningdek xarbiy xarakterli, davlat organlarining axtarlari yoki xarakterli va taraflar nazorat qila olmaydigan boshqa xar qanday xolatlar Tegishlidir.

7.2. Taraflar ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmaslik sabablari to'g'risida albatta ikkinchi tarafni ogoxlantirishi shart.

7.3. Agar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch 1 oy davomida uzluksiz ravishda davom etsa, taraflar bir-birini yozma ravishda ogoxlantirib, shartnomaning ijrosini bekor qilish yoki qo'shimcha ijro muddatlarini belgilashlari mumkin.

VII. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

8.1. Ushbu shartnomani bajarish, o'zgartirish va uni bekor qilishda paydo bo'ladigan nizolar eng avvalo taraflarning kelishuvi bilan xal qilinadi. O'zaro kelishilmagan taqdirda mavjud nizolar iktisodiy sudlar orqali O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari asosida xal qilinadi.

8.2. SHartnoma taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fukarolik kodeksiga xamda amaldagi qonun xujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni to'lagan xolda muddatidan ilgari bekor qilish mumkin.

XI. SHARTNOMANI AMAL QILISH MUDDATI VA KUCHGA KIRISHI.

9.3. Ushbu shartnoma 2 nusxada tuzildi va barcha nusxalari teng kuchga ega.

9.4. Shartnoma taraflar tomonidan imzolaniib, hududiy g'aznachilik bo'limida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi va 2022 yil «31» dekabrigacha amal qiladi.

X. QO'SHIMCHA SHARTLAR

XI. TOMONLARNING MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

«XARIDOR»

Namangan viloyat IIB JXX YHXB maxsus
ekspluatatsiya montaj bo'limi
INN: 201763176, OKONX: 42110
O'zbekiston Respublikasi
Moliya Vazirligi G'aznachiligi
XR: 23402000300100001010
MFO: 00014, INN: 201122919
Tel :69 233-45-23
SHXR:

«SOTUVCHI»

MChJ "Ultramax Road Build"
Toshkent shaxri,
Yunusabad rayoni, Chinabad, 85
XR 2020 8000 5054 8217 1001
AIKB "Ipak Yoli"
Bank M. Ulugbek filiali
MFO – 00421 OKED – 46730
INN -309 219 859



Raxbar: F.K.Abdullayev

Handwritten signature of F.K. Abdullayev

Raxbar: M. Mirazizov



МУХОКАМА АХБОРОТИ

“13” декабрь 2022 йил

Наманган ш.

Наманган вилояти ҳудудидаги Наманган вилояти ИИБ ЖХХ ЙХХБ Махсус эксплуатация – монтаж бўлими ташкилоти томонидан 2022 йил “01” декабрдаги 22110012201238 – сонли лотга асосан Ўзбекистон республикасининг 2021 йил 22 апрелдаги 684-сонли “Давлат харидлари тўғриси”даги қонуни 56 ва 58 – моддалари талабларидан келиб чиқиб энг яхши таклифларни танлаш тури бўйича Наманган вилояти ИИБ ЖХХ ЙХХБ Махсус эксплуатация монтаж бўлимига икки томонлама қўшимча блокли нитробўёқларда асфальт қопламасига йўл чизикларини белгиловчи махсус техника етказиб бериш товар (иш,хизмат) учун харидлар амалга оширилиши режалаштирилган. Шунга асосан белгиланган муддатлар асосида Ўзбекистон республикасининг 2021 йил 22 апрелдаги 684-сонли “Давлат харидлари тўғриси”даги қонуни – 60 ва 61 моддалари талабларидан келиб чиқиб танлов савдолари ўтказилди. Мазкур танлов савдолари якуни бўйича "ULTRAMAX ROAD BUILD" МЧЖ томонидан берилган таклифлар комиссия аъзолари иштирокидан энг мақбули деб топилди. Ушбу танлов жараёнлари бўйича расмийлаштирилган баённомалар “Давлат харидлари тўғриси”даги қонуни 62 моддасига асосан давлат буюртмачиси томонидан у расмийлаштирилган кунда давлат харидларининг электрон тизимида муҳокама қилиш учун икки иш кунига жойлаштирилди. Шунга асосан икки иш кун ичида танлаш иштирокчилари томонидан танлаш ўтказиш натижалари бўйича эътирозлар келиб тушмади. Юқоридаги ҳолатлардан келиб чиқиб, давлат буюртмачиси ва харид комиссияси томонидан ғолиб деб топилган иштирокчи ўртасида шартнома тузилиши мумкин ҳисобланиши белгилаб олинди. Муҳокама учун белгиланган муддат тугаганидан кейин келиб тушган эътирозлар харид комиссияси томонидан кўриб чиқилмади.

**Наманган вилояти ИИБ ЖХХ
ЙХХБ Махсус эксплуатация –
монтаж бўлими бошлиғи**



Ф.К.Абдуллаев

**Наманган вилояти ИИБ ЖХХ
ЙХХБ Махсус эксплуатация –
монтаж бўлими бошлиғи**



Ж.Т.Инамов